

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
SENTYABR / 9-SON, I-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В Г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, sentyabr.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ASOSIY VOSITALARNING DASTLABKI QIYMATINI SHAKLLANTIRISHNING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDAGI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	9
Nematova Dilnoza Azamatovna	
TIJORAT BANKLARIDA MIJOZGA YO'NALTIRILGAN BIZNES-JARAYONLARINI TRANSFORMATSIYA QILISHNING HOZIRGI HOLATI.....	15
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ГОСТИНИЧНЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ НА ОСНОВЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	23
Нигматова Сугдиена Жалолиддин кизи	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MARKETING MEKANIZMLARIDAN FOYDALANISH.....	29
Bazarova Mamlakat Supiyevna	
XORIJIY ILMIY STAJIROVKALARNI TASHKIL ETISH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISHNING TIZIMLI TAHLILI VA KONSEPTUAL MODEL.....	33
Tojiyev S.A., Mashg'ulotov J.A., Usmonov U.M.	
HUDUDLAR IQTISODIYOTIDAGI NOMUTANOSIBLIK LARNI BARTARAF ETISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEKANIZMLARI.....	44
Toshov Mirzabek Hakimovich	
O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT KORXONALARINING EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH	50
O'rinova Umida Qodirjonovna	
QISHLOQ XO'JALIGIDA ULTRABINAFSHA C NURLANISH TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI: ZAMONAVIY HOLATI, SAMARADORLIGI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	54
Ibroximov Sanjarbek, Nematov Nurillo, Xakimov Dilmurod	
TEXNOGEN CHIQINDILAR ASOSIDA MNA-1 VA MNA-2 FAOL KIMYOVIY QO'SHIMCHALARINI SINTEZ QILISH VA SEMENT XAMIRINING REOLOGIK KO'RSATKICHLARINI BOSHQARISH.....	64
Muhamedov Nodir Abdug'aniyevich	
IKKI TOMONLAMA TA'MINLANADIGAN ASINXRON GENERATOR ASOSIDAGI SHAMOL ENERGETIKA TIZIMINI MATEMATIK MODELASHTIRISH VA VEKTORLI BOSHQARISHNI TADQIQ ETISH.....	69
To'ychiyev Furqat, Rashidov Nuralibek, Abduxalilov Abdumannop	
СЕЙСМОСТОЙКОСТЬ МАЛОЭТАЖНОГО ЗДАНИЯ С ПУЛТРУЗИОННЫМ СТЕКЛОПЛАСТИКОВЫМ КАРКАСОМ И ДЕФОРМАЦИОННО-РАЗВЯЗНЫМИ 3D-ПЕЧАТНЫМИ СТЕНАМИ.....	80
Акбаров Дильшод, Акрамов Хуснитдин	
LEGIRLANGAN SILIKAT SHISHADA ZEEBEK EFFEKTIGA MNO_2 TA'SIRI	90
Soliyev Muxammadyor, Tursunova Rushana	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTI SAMARADORLIGINI PROGNOZLASH.....	99
Eshboyev Shahobiddin Anorqul o'g'li	
O'ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	107
Homidov Baxtiyor Rahimberdievich	
UNIVERSITET INSON KAPITALINI SHAKLLANTIRISH EKOTIZIMI SIFATIDA: DUNYO VA O'ZBEKISTONDA TA'LIM SIYOSATINING EVOLYUTSIYASI	114
Sabirov Alisher, Oqmullayev Ravshanjon	
PUTUR YETKAZMASDAN TEKSHIRISH LABORATORIYALARINI AKKREDITATSIYALASHDA STANDARTLASHTIRISH TALABLARINING AHAMIYATI.....	122
Axmedov G'ayratjon Maxmudjonovich	



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI	129
---	-----

G'iyosov Ilxom Karimovich



QURILISH SANOATI KORXONALARIDA KORPORATIV BOSHQARUV SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI

G'iyosov Ilxom Karimovich

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

E-mail: giyosov.ilhom@list.ru

Annotatsiya. Maqolada qurilish sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning zamonaviy usullari qiyosiy tahlil qilingan va tarmoq xususiyatlarini hisobga oluvchi ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan. Tadqiqot indeks, reyting, ekspertlar bahosi va chegaraviy tahlil usullarini qiyoslash asosida olib borilib, har bir usulning axborot talablari va cheklovlari aniqlangan. Muallif tomonidan besh blokli ko'rsatkichlar tizimi, ularni baholash tartibi hamda bloklararo kompensatsiyani cheklovchi vaznlashtirilgan o'rta geometrik integral indeks taklif etilgan. Tadqiqot natijalari qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini muntazam monitoring qilish va boshqaruv qarorlarini dalil-larga tayanib qabul qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: korporativ boshqaruv, qurilish korxonalari, samaradorlikni baholash, ko'rsatkichlar tizimi, integral indeks, ballashtirish, vazn koeffitsiyenti, oshkoralik, reyting shkalasi, ichki audit.

Аннотация. В статье проведен сравнительный анализ современных методов оценки эффективности корпоративного управления на предприятиях строительной отрасли и разработана система показателей, учитывающая отраслевые особенности. Исследование проведено на основе сопоставления методов индексации, рейтинговой оценки, экспертного оценивания и порогового анализа, в результате чего определены информационные требования и ограничения каждого метода. Автором предложены пятиблочная система показателей, порядок их балльной оценки, а также взвешенный среднегеометрический интегральный индекс, ограничивающий межблочную компенсацию. Результаты исследования позволяют осуществлять регулярный мониторинг эффективности корпоративного управления на строительных предприятиях и принимать управленческие решения на основе доказательств.

Ключевые слова: корпоративное управление, строительные предприятия, оценка эффективности, система показателей, интегральный индекс, балльная оценка, весовой коэффициент, прозрачность, рейтинговая шкала, внутренний аудит.

Abstract. The article provides a comparative analysis of modern methods for assessing the effectiveness of corporate governance in construction industry enterprises and develops an indicator system that takes industry-specific characteristics into account. The study is based on a comparison of index-based, rating, expert assessment, and threshold analysis methods, identifying the information requirements and limitations of each method. The author proposes a five-block indicator system, a scoring procedure, and a weighted geometric mean composite index that limits inter-block compensation. The research findings enable regular monitoring of corporate governance effectiveness in construction enterprises and support evidence-based managerial decision-making.

Keywords: corporate governance, construction enterprises, efficiency assessment, indicator system, composite index, scoring, weight coefficient, transparency, rating scale, internal audit.

KIRISH

Boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish haqidagi har qanday qaror uning joriy holatini ishonchli o'lchashdan boshlanadi. Korporativ boshqaruv esa bevosita kuzatilmaydigan, ko'p o'lchovli va sifat jihatlarini o'z ichiga oluvchi kategoriya bo'lgani sababli, uni baholash mustaqil ilmiy-uslubiy vazifa hisoblanadi. O'lchash vositasi bo'lmagan joyda boshqaruv sifatining o'zgarishi qayd etilmaydi, amalga oshirilayotgan islohotlarning natijasi esa obyektiv baholanmaydi.

Ushbu vazifaning qurilish sanoati misolida hal etilishi tarmoqning iqtisodiyotdagi o'rni bilan belgilanadi. O'zbekistonda bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2017-yildagi 34,7 trln so'mdan 2025-yilda 313,9 trln so'mga yetgan; 2025-yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan 591,1 trln so'mlik investitsiyalarning 282,5 trln so'mi yoki 47,8 foizi bevosita qurilish-montaj ishlariga yo'naltirilgan [1]. Bunday miqyosdagi resurs oqimini boshqaruvchi korxonalarda boshqaruv sifatining muntazam o'lchab borilishi institutsional zarurat hisoblanadi.

Mamlakatda baholashning huquqiy-uslubiy asoslari izchil shakllantirilmoqda. Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarining joriy etilishi, Korporativ boshqaruv kodeksining qabul qilinishi, Korporativ axborot yagona portali orqali axborotni oshkor etish talablarining kuchaytirilishi hamda davlat ishtirokidagi yirik korxonalarda ochiqlik va korporativ boshqaruv standartlarini mustahkamlash bo'yicha belgilangan choralar mazkur tizimning asosiy unsurlaridir [2]. Xalqaro amaliyotga integratsiya yo'nalishida ham dastlabki qadamlar qo'yildi: 2025-yilda mamlakatimiz korxonalaridan biri ilk bor xalqaro ESG reytingiga ega bo'ldi.

Shunga qaramay, amaldagi baholash yondashuvlari bir qator uslubiy kamchiliklardan xoli emas. Birinchidan, ko'pchilik metodikalar universal xarakterga ega bo'lib, tarmoq xususiyatlarini – qurilishdagi loyihaviy tuzilma, subpudrat zanjirlari va bog'langan tomonlar bilan bitimlarning ko'pligini hisobga olmaydi. Ikkinchidan, ko'rsatkichlar tizimi ko'pincha tarqoq bo'lib, ularning o'zaro ierarxiyasi va vazni asoslanmaydi. Uchinchidan, keng qo'llaniladigan additiv indekslar bloklararo to'liq kompensatsiyaga yo'l qo'yadi: bir blokda yuqori natija boshqa blokda jiddiy kamchilikni «yashirib» yuboradi va yakuniy baho real holatni buzib ko'rsatadi.

Baholashning maqsadi ham metodika tanloviga ta'sir ko'rsatadi. Ichki boshqaruv ehtiyojlari uchun o'tkaziladigan baholashda diagnostik aniqlik, ya'ni kamchilikning qayerda ekanini ko'rsatish imkoniyati birinchi o'ringa chiqadi. Tashqi foydalanuvchilar – investorlar, kreditorlar va buyurtmachilar uchun esa taqqoslanuvchanlik va natijaning yagona son ko'rinishida ifodalanishi muhimroq. Amalda bu ikki talab bir-biriga zid keladi: yaxlit indeks taqqoslashga qulay, ammo kamchilik manbaini yashiradi. Ushbu ziddiyatni bartaraf etishning yagona yo'li – blokli tuzilmani saqlagan holda yaxlit baho chiqarish, ya'ni yakuniy indeks bilan bir qatorda blok indekslarini ham e'lon qilishdir.

Tarmoqning tashkiliy tuzilishi ham baholash imkoniyatini cheklaydi: 2025-yilda bajarilgan qurilish ishlarining 47,8 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar, 25,8 foizi esa norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan [1]. Bu sharoitda baholash metodikasi korxonalarning barcha toifalariga bir xil tarzda tatbiq etilishi mumkin emas va u segmentga moslashuvchan bo'lishi talab etiladi.

Maqolaning maqsadi qurilish sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning zamonaviy usullarini qiyosiy tahlil qilish va tarmoq xususiyatlarini hisobga oluvchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: mavjud baholash usullarining imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash; ko'rsatkichlar tizimining blokli tuzilmasini asoslash; ko'rsatkichlarni ballashtirish va vaznlashtirish tartibini ishlab chiqish; integral indeksni hisoblash usulini taklif etish; baholash natijalarini boshqaruv qarorlariga aylantiruvchi reyting shkalasini shakllantirish.

Tadqiqot obyekti – O'zbekiston Respublikasi qurilish sanoati korxonalarida korporativ boshqaruv tizimi. Tadqiqot predmeti – mazkur tizim samaradorligini baholashning usullari, ko'rsatkichlari va uslubiy tartibi. Maqolaning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi: birinchidan, baholash usullari axborot talabi va cheklovlari bo'yicha qiyosiy tizimlashtirilgan; ikkinchidan, besh blokli, vaznlari tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib asoslangan ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqilgan; uchinchidan, bloklararo to'liq kompensatsiyani cheklovchi vaznlashtirilgan o'rta geometrik integral indeks taklif qilingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruvni baholash zarurati nazariy jihatdan agentlik nazariyasidan kelib chiqadi. M. Djensen va U. Mekling (1976) mulkdor va menejer manfaatlarining mos kelmasligi agentlik xarajatlarini vujudga keltirishini ko'rsatgan bo'lsa [3], A. Shleyfer va R. Vishni (1997) korporativ boshqaruvni investorlarning mablag'lari bo'yicha daromad olishini ta'minlovchi mexanizmlar majmui sifatida ta'riflagan [4]. Ushbu qarashlardan bevosita amaliy xulosa kelib chiqadi: mexanizmlarning mavjudligi va amal qilish darajasi o'lchanadigan bo'lishi kerak.

Baholashning indeks usulini ilmiy muomalaga kiritish borasidagi eng ta'sirli ish P. Gompers, J. Ishii va A. Metrik (2003) tomonidan bajarilgan. Ular korporativ boshqaruv holatini yig'ma indeks ko'rinishida o'lchab, yuqori indeksga ega kompaniyalar aksiyalarining daromadlilik sezilarli yuqori ekanini ko'rsatganlar [6]. Ayni paytda S. Bhagat va B. Blek (2002) kuzatuv kengashining mustaqilligi bilan uzoq muddatli natijadorlik o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjud emasligini aniqlab, indeksga kiritilayotgan ko'rsatkichlar tanlovining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko'rsatgan [5]. Ushbu ikki natija birgalikda muhim uslubiy xulosaga olib keladi: indeksning ishonchiligi uning tarkibiy ko'rsatkichlari va vaznlarining asoslanganligi bilan belgilanadi.

Baholashning boshqa yo'nalishlari ham rivojlangan. R. Kaplan va D. Norton (1996) tomonidan ishlab



chiqilgan mutanosib ko'rsatkichlar tizimi moliyaviy natijalarni ichki jarayonlar va rivojlanish perspektivalari bilan uyg'unlashtirish g'oyasini ilgari surgan [7]. A. Charnes, U. Kuper va E. Rouds (1978) DEA modelini taklif qilib, ko'p kiruvchi va ko'p chiquvchi resurslarga ega birliklar samaradorligini nisbiy baholash imkonini yaratganlar [8]. T. Saati (1980) iyerarxiyalarni tahlil qilish usulini ishlab chiqib, sifat ko'rsatkichlarini miqdoriy shaklga keltirish va vazn koeffitsiyentlarini asoslashning matematik vositasini bergan [9]. Mazkur usul bugungi kunda indeks tuzishda vaznlarni aniqlashning eng ko'p qo'llaniladigan vositalaridan biri hisoblanadi.

Xalqaro darajada baholash mezonlari G20/IHTT korporativ boshqaruv tamoyillarining 2023-yilgi tahririda belgilab berilgan bo'lib, unda oshkoralik, kuzatuv kengashining mas'uliyati, aksiyadorlar huquqlari va barqarorlik masalalari alohida ajratilgan [10]. IHTTning korporativ boshqaruv bo'yicha ma'lumotnoma nashri esa ushbu tamoyillarning amalda qanday joriy etilayotganini mamlakatlar kesimida kuzatish imkonini beradi [11]. Qurilish tarmog'iga oid tadqiqotlarda E. J. Kaka (2023) kuzatuv kengashining tarkibi va audit qo'mitasining mavjudligi moliyaviy hisobotlar sifatiga ijobiy, kengash a'zolari sonining ortishi esa salbiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan [12] – bu baholashda ko'rsatkichning «miqdori» emas, sifati hal qiluvchi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

MDH mamlakatlari olimlarining ishlarida baholash metodikasini milliy sharoitga moslashtirish masalasi o'rganilgan. A. Radigin va R. Entov (2001) mulkchilik huquqini himoya qilish darajasining baholash natijalariga ta'sirini empirik tahlil asosida ko'rsatgan [13]. D. Tkachenko (2008) korporativ boshqaruv sifatini baholash va investitsion jozibadorlik o'rtasidagi aloqani o'lchash metodikasini taklif qilgan [14]. Z. Gukasyan esa iqtisodiy manfaatlar muvozanatiga asoslangan baholash metodologiyasini ishlab chiqqan [15].

Mahalliy tadqiqotlarda mavzu milliy amaliyot nuqtayi nazaridan yoritilgan. E. A. Muminova (2021) korporativ boshqaruv sifatini baholash metodologiyasini takomillashtirish va manfaatlar uyg'unligini kompleks baholashning uslubiy asoslarini ishlab chiqqan [16]. B. F. Ganixodjaev va Sh. A. Xusainov (2018) korporativ boshqaruv tizimini baholash va diagnostika qilish usullarini tizimlashtirgan [17]. Sh. K. Kurbaniyazov (2018) qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruv mexanizmini joriy etish samaradorligini baholash yondashuvini taklif etgan [18]. M. Sh. G'oziev (2023) esa qurilish sanoati korxonalarining iqtisodiy salohiyatini baholashda manfaatdorlik yondashuvini ilgari surgan [19].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, baholash usullari va indeks tuzish vositalari yetarlicha ishlab chiqilgan, ammo ularning qurilish tarmog'i xususiyatlariga moslashtirilishi masalasi ochiq qolmoqda. Xususan, loyihaviy tuzilma va subpudrat zanjirlari sharoitida qaysi ko'rsatkichlarga ustuvor vazn berilishi, bloklararo kompensatsiya qanday cheklanishi va baholash natijasi boshqaruv qaroriga qanday aylantirilishi borasidagi uslubiy yechimlar yaxlit tizimga keltirilmagan. Mazkur bo'shliqni to'ldirish ushbu maqolaning vazifasini tashkil etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy-uslubiy xususiyatga ega bo'lib, asosiy e'tibor qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash usullari va ko'rsatkichlar tizimining ilmiy asoslarini ochib berishga qaratilgan. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid institutsional va dinamik tahlil, mantiqiy taqqoslash, umumlashtirish, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanilgan. Ko'rsatkichlarni yaxlitlashtirishda ballashtirish, normallashtirish va vaznlashtirish usullari qo'llanilib, vazn koeffitsiyentlarini asoslashda iyerarxiyalarni tahlil qilish usulining mantig'iga tayanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Baholash vazifasini aniq qo'yish uchun dastlab ikkita yaqin, ammo aynan bo'lmagan tushunchani farqlash zarur. Korporativ boshqaruv sifati – bu boshqaruv mexanizmlarining mavjudligi va belgilangan standartlarga muvofiqligi, ya'ni tizimning holati. Korporativ boshqaruv samaradorligi esa ushbu mexanizmlarning amalda qanday natija berayotganini, ya'ni tizimning natijadorligini ifodalaydi. Amaliyotda ko'pincha birinchisi o'lchanib, ikkinchisi haqida xulosa chiqariladi; bu uslubiy almashinish baholash natijalarining ishonchligini pasaytiradi. Shu bois baholash tizimi ham holat, ham natija ko'rsatkichlarini o'z ichiga olishi lozim.

Zamonaviy amaliyotda korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning bir nechta usuli shakllangan. Ularning har biri axborot talabi, natijaning talqin qilinish imkoniyati va qo'llash chegarasi bo'yicha farqlanadi (1.1-jadval).


Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, yagona universal usul mavjud emas: tekshiruv usuli soddaligi bilan ajralib tursa-da, sifatini o'lchamaydi; reyting agentliklari metodikasi obro'li, ammo kichik va o'rta qurilish korxonalari uchun iqtisodiy jihatdan maqbul emas; chegaraviy tahlil obyektiv bo'lsa-da, boshqaruv sifatini bevosita kiritmaydi. O'zbekiston qurilish tarmog'i sharoitida – oshkor etilgan hisobotlar bazasi shakllanib borayotgan, ammo uzun panel ma'lumotlar hali mavjud bo'lmagan paytda – indeks usulini ekspertlar bahosi bilan uyg'unlashtirish uslubiy jihatdan oqilona yechim hisoblanadi (1-jadval).

1-jadval

Korporativ boshqaruv samaradorligini baholashning zamonaviy usullari va ularning qiyosiy tavsifi¹

Usul	Baholash mantig'i	Afzalligi	Cheklovi
Mezonlar bo'yicha tekshiruv (checklist)	Standart talablarga muvofiqlikni qayd etish	Oddiy, takrorlanuvchan, arzon	Mexanizmning sifatini emas, mavjudligini o'lchaydi
Indeks usuli	Ko'rsatkichlarni ballashtirib yaxlitlashtirish	Latent kategoriyani son bilan ifodalaydi	Vaznlar subyektivligi, kompensatsiya xavfi
Reyting agentliklari metodikasi	Tashqi mustaqil ekspertiza va reyting berish	Xalqaro taqqoslanuvchanlik, obro'lilik	Qimmat, kichik korxonalar uchun imkonsiz
Ekspertlar bahosi va iyerarxialarni tahlil qilish	Sifat jihatlarini miqdoriy shaklga keltirish	Vaznlarni matematik asoslash imkoniyati	Ekspertlar tanloviga bog'liqlik
Chegaraviy tahlil (DEA, SFA)	Resurs va natija nisbati bo'yicha nisbiy baho	Ob'ektiv, ko'p o'lchovli	Boshqaruv sifati bilvosita kiritiladi
Mutanosib ko'rsatkichlar tizimi (BSC)	Moliyaviy va nomoliyaviy o'lchovlar muvozanati	Strategiya bilan bog'langanlik	Yaxlit son bilan ifodalamaydi
ESG va barqarorlik reytinglari	Ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mezonlari	Investorlar uchun axborot qiymati yuqori	Boshqaruv bloki umumiy bahoning bir qismi

Ushbu xulosadan kelib chiqib, baholashning ko'p darajali arxitekturasini taklif etiladi. Arxitektura axborot manbalaridan boshqaruv qarorlarigacha bo'lgan yo'lni besh darajada ifodalaydi va har bir darajada amalga oshiriladigan ishni aniq belgilaydi (1-rasm).



1-rasm. Qurilish korxonalarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholash tizimining ko'p darajali arxitekturasini²

Arxitekturaning birinchi darajasida axborot manbalari jamlanadi. Ikkinchi darajada xususiy ko'rsatkichlar belgilangan mezonlar bo'yicha ballashtiriladi; sifat ko'rsatkichlari ekspertlar bahosi orqali miqdoriy shaklga keltiriladi. Uchinchi darajada ballar blok indekslariga jamlanadi, to'rtinchi darajada blok indeksleri vaznlashtirilgan o'rta geometrik usulda yaxlitlashtiriladi, beshinchi darajada esa olingan baho reyting shkalasi orqali boshqaruv qaroriga aylantiriladi. Teskari aloqa kanali ko'rsatkichlar tarkibi va vaznlarini davriy ravishda tuzatish imkonini beradi.

1 Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.
2 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Ko'rsatkichlar tizimining blokli tuzilmasi va vaznlari qurilish tarmog'ining xususiyatlaridan kelib chiqib asoslangan. Oshkoralik hamda ichki nazorat bloklariga nisbatan yuqori vazn berilishi tarmoqda bog'langan tomonlar bilan bitimlarning ko'pligi, subpudrat zanjirlarining uzunligi va tender jarayonlarining o'ziga xosligi bilan izohlanadi (2-jadval).

2-jadval

Baholash ko'rsatkichlari tizimining blokli tuzilmasi va vazn koeffitsiyentlari³

Blok	Ko'rsatkichlar soni	Vazn, wj	Vazn darajasining asosi
Mulkchilik tuzilmasi	4	0,15	Nazorat samaradorligini belgilaydi, ammo tezkor boshqaruvga bevosita ta'siri cheklangan
Kuzatuv kengashi	5	0,20	Yirik loyihalar bo'yicha strategik qarorlar shu organda qabul qilinadi
Oshkoralik va hisobdorlik	6	0,25	Subpudrat zanjiri va tender jarayonida axborot asimmetriyasi yuqori
Ichki nazorat va audit	5	0,25	Bog'langan tomonlar bilan bitimlar va smeta intizomi nazorat talab qiladi
Manfaatdor tomonlar bilan munosabat	4	0,15	Buyurtmachi va subpudratchilar bilan barqaror munosabat obro' riskini kamaytiradi
Jami	24	1,00	—

Har bir blok tarkibidagi ko'rsatkichlar aniq o'lchov usuliga va maksimal ball miqdoriga ega bo'lishi shart. Bu baholashning takrorlanuvchanligini va turli korxonalar bo'yicha taqqoslanuvchanligini ta'minlaydi (3-jadval).

3-jadval

Bloklar kesimidagi asosiy ko'rsatkichlar va ularni ballashtirish tartibi⁴

Blok	Asosiy ko'rsatkich	O'lchash va ballashtirish usuli	Maks. ball
Mulkchilik tuzilmasi	Yirik aksiyador ulushi, minoritariylar huquqi	Konsentratsiya darajasi va huquqlar himoyasi bo'yicha shkala	15
Kuzatuv kengashi	Mustaqil a'zolar ulushi	Mustaqil a'zolar / kengash a'zolari, shkala bo'yicha	20
Kuzatuv kengashi	Ixtisoslashgan qo'mitalar mavjudligi	Audit va mukofotlash qo'mitalari bo'yicha ball	10
Oshkoralik va hisobdorlik	Majburiy axborot oshkorligi	Oshkor etilgan / talab etilgan hujjatlar nisbati	25
Oshkoralik va hisobdorlik	Hisobotning xalqaro standartlarga mosligi	MHXS bo'yicha hisobot va tashqi audit mavjudligi	15
Ichki nazorat va audit	Ichki audit va komplaens qamrovi	Xizmat mavjudligi, hisobot berish tartibi	20
Ichki nazorat va audit	Bog'langan tomonlar bilan bitimlar nazorati	Ma'qullash tartibining rasmiylashtirilganligi	15
Manfaatdor tomonlar	Shartnoma intizomi va nizolar	Hisobot davrida qayd etilgan nizolar soni	15

Ko'rsatkichlarni ballashtirishda alohida e'tibor sifat ko'rsatkichlariga qaratilishi lozim. Mulkchilik ulushi yoki mustaqil a'zolar soni kabi ko'rsatkichlar bevosita hujjatlardan olinsa, kuzatuv kengashi qarorlarining asoslanganligi yoki ichki audit xulosalarining amalda bajarilishi kabi jihatlar ekspertlar bahosini talab qiladi. Ekspertlar bahosining ishonchliligini oshirish uchun uchta shart bajarilishi kerak: ekspertlar soni kamida besh nafar bo'lishi, har bir ko'rsatkich uchun ballashtirish mezonlari oldindan yozma ravishda belgilanishi hamda ekspertlar fikrlarining moslik darajasi konkordatsiya koeffitsiyenti orqali tekshirilishi. Ushbu shartlar bajarilmaganda baholash natijasi takrorlanuvchanligini yo'qotadi.

Baholash tizimining amal qilishi uchun axborot manbalarining qamrovi va ishonchliligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tarmoq kesimida manbalarining qamrovi bir xil emasligi baholash imkoniyatini segmentlar bo'yicha farqlantiradi (4-jadval).

³ Vaznlar ierarxiyalarni tahlil qilish usuli mantig'i asosida, tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁴ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

4-jadval

Baholash uchun axborot manbalari va ularning tarmoqdagi qamrovi⁵

Axborot manbai	Olinadigan ko'rsatkichlar	Qamrov doirasi	Ishonchlilik darajasi
Korporativ axborot yagona portali	Oshkoralik, kuzatuv kengashi, muhim faktlar	Aksiyadorlik jamiyatlari	Yuqori
Moliyaviy hisobotlar va balans	ROA, ROE, qarz yuki, aktivlar hajmi	Hisobot beruvchi korxonalar	Yuqori
Auditorlik xulosalari	Ichki nazorat va hisobot sifati	Audit o'tkazgan korxonalar	Yuqori
Kuzatuv kengashi qarorlari	Qarorlar soni, qo'mitalar faoliyati	Aksiyadorlik jamiyatlari	O'rta
Ustav va ichki hujjatlar	Vakolatlar taqsimoti, bitimlar tartibi	Barcha yuridik shaxslar	O'rta
Rasmiy statistika	Tarmoq va hudud konteksti	Tarmoq bo'yicha to'liq	Yuqori
Ekspertlar so'rovi	Sifat ko'rsatkichlari va vaznlar	Tanlanma doirasida	O'rta

Tarmoqning umumiy holati baholash natijalarini talqin qilish uchun zarur makrokontekstni beradi (5-jadval).

5-jadval

O'zbekiston Respublikasida qurilish ishlari hajmi dinamikasi, 2020–2025 yillar⁶

Yil	Qurilish ishlari hajmi, trln so'm	Oldingi yilga nisbatan nominal o'sish, %	2020 yilga nisbatan, marta
2020	88,1	–	1,00
2021	107,5	122,0	1,22
2022	130,8	121,7	1,48
2023	222,9	170,4	2,53
2024	259,7	116,5	2,95
2025	313,9	120,9	3,56

Ballashtirish yakunlangach, har bir blok bo'yicha xususiy indeks hisoblanadi. Blok indeksi to'plangan ballar yig'indisining mazkur blok bo'yicha maksimal mumkin bo'lgan ballar yig'indisiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$I_j = \frac{\sum_{s=1}^{q_j} b_{js}}{\sum_{s=1}^{q_j} b_{js}^{max}} \quad (1.1)$$

Bu yerda:

I_j – j-blok bo'yicha xususiy indeks, $0 \leq I_j \leq 1$;

b_{js} – j-blokdagi s-ko'rsatkich bo'yicha to'plangan ball;

b_{js}^{max} – s-ko'rsatkich bo'yicha maksimal mumkin bo'lgan ball;

q_j – j-blokdagi ko'rsatkichlar soni.

Blok indekslarini yaxlitlashtirishda additiv o'rnicha vaznlashtirilgan o'rta geometrik usul taklif etiladi. Additiv indeksda bloklararo to'liq kompensatsiya yuzaga keladi: masalan, oshkoralik bo'yicha yuqori natija ichki nazoratdagi jiddiy kamchilikni qoplab, yakuniy bahoni sun'iy ravishda ko'taradi. O'rta geometrik usulda esa har qanday blokning keskin pasayishi yakuniy bahoga sezilarli ta'sir ko'rsatadi:

$$CGE = \prod_{j=1}^n I_j^{w_j} \quad (1.2)$$

Bu yerda:

CGE – korporativ boshqaruv samaradorligining integral indeksi, $0 \leq CGE \leq 1$;

I_j – j-blok bo'yicha xususiy indeks;

w_j – j-blokning vazn koeffitsiyenti, barcha vaznlar yig'indisi 1 ga teng;

n – bloklar soni (taklif etilayotgan tizimda $n = 5$).

Baholash natijasini davrlar va korxonalar bo'yicha taqqoslash uchun etalon darajadan chetlanish ko'rsatkichi hisoblanadi. Etalon sifatida tarmoq bo'yicha eng yaxshi natija yoki belgilangan maqsadli daraja qabul qilinishi mumkin:

$$\Delta = \frac{CGE_f - CGE_e}{CGE_e} \cdot 100 \quad (1.3)$$

⁵ Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



bunda

Δ – etalon darajadan chetlanish, foizda;

CGEf – baholanayotgan korxonaning haqiqiy integral indeksi;

CGEe – etalon (tarmoq bo'yicha eng yaxshi yoki maqsadli) indeks qiymati.

Baholashning yakuniy bosqichi – olingan son qiymatini boshqaruv qaroriga aylantirishdir. Buning uchun reyting shkalasi va har bir daraja uchun tavsiya etiladigan choralar majmui belgilanadi (7-jadval).

7-jadval

Integral indeks bo'yicha reyting shkalasi va tavsiya etiladigan boshqaruv choralari⁷

Daraja	CGE oralig'i	Tavsifi	Tavsiya etiladigan choralar
Yuqori	0,80 – 1,00	Boshqaruv mexanizmlari to'liq amal qiladi	Erishilgan darajani saqlash, ESG yo'nalishiga o'tish
Maqbul	0,65 – 0,79	Asosiy mexanizmlar ishlaydi, ayrim bo'shliqlar mavjud	Zaif bloklarni nuqtali kuchaytirish, monitoringni davom ettirish
O'rta	0,50 – 0,64	Mexanizmlar rasman mavjud, amalda sustlashgan	Ichki audit va oshkoralikni kuchaytirish, qo'mitalarni shakllantirish
Past	0,35 – 0,49	Mexanizmlarning sezilarli qismi ishlamaydi	Kuzatuv kengashi tarkibini qayta ko'rib chiqish, vakolatlarni aniqlashtirish
Qoniqarsiz	0,35 dan past	Tizimli kamchiliklar, yuqori boshqaruv riski	Kompleks islohot dasturi, tashqi ekspertiza jalb etish

Baholashning davriyligi ham uslubiy jihatdan ahamiyatli. Korporativ boshqaruv mexanizmlari sekin o'zgaruvchi institutsional tuzilma bo'lgani sababli, ularni oylik yoki choraklik kesimda baholash ma'noga ega emas. Ayni paytda yillik davriylik qurilishdagi loyiha sikliga mos keladi: aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi, moliyaviy hisobotning tasdiqlanishi va auditorlik xulosasining tayyorlanishi bir vaqtga to'g'ri keladi va baholash uchun zarur axborotning to'liq to'planishini ta'minlaydi. Shu bois baholashni yillik hisobot sikliga bog'lash va natijalarni kuzatuv kengashi hisobotining tarkibiy qismi sifatida rasmiylashtirish tavsiya etiladi.

Nihoyat, baholash tizimining o'zi vaqt o'tishi bilan takomillashtirilishi lozim. Ko'rsatkichlar tarkibi va vazn koeffitsiyentlari institutsional muhit o'zgarishi, oshkor etish talablarining kengayishi va raqamli hisobot tizimlarining rivojlanishi bilan birga qayta ko'rib chiqilishi kerak. Masalan, oshkor etish talablari barcha yirik korxonalarga to'liq joriy etilganda ushbu blokning differensiallash qobiliyati pasayadi – barcha korxonalar yuqori ball oladi va ko'rsatkich ajratuvchi xususiyatini yo'qotadi. Bunday holatda vaznlarni qayta taqsimlash va yangi, aniqroq ko'rsatkichlarni kiritish talab etiladi. Aynan shu sababdan taklif etilayotgan arxitekturada teskari aloqa kanali alohida element sifatida ko'rsatilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Korporativ boshqaruv sifati va samaradorligi aynan tushunchalar emas: birinchisi tizimning holatini, ikkinchisi esa natijadorligini ifodalaydi. Baholash tizimi har ikki jihatni – ham mexanizmlarning mavjudligini, ham ularning amaldagi natijasini qamrab olishi lozim.

Zamonaviy baholash usullari orasida yagona universal mavjud emas. Oshkor etilgan hisobotlar bazasi shakllanib borayotgan, uzun panel ma'lumotlar esa hali to'planmagan sharoitda indeks usulini ekspertlar bahosi bilan uyg'unlashtirish uslubiy jihatdan oqilona yechim hisoblanadi.

Baholash tizimi ko'p darajali arxitekturaga ega bo'lishi kerak: axborot manbalari, xususiy ko'rsatkichlarni ballashtirish, blok indeksleri, integral indeks va reyting shkalasi. Ushbu tuzilma baholashning takrorlanuvchanligini va natijaning boshqaruv qaroriga aylantirilishini ta'minlaydi.

Maqolada besh blokli, 24 ta ko'rsatkichdan iborat ko'rsatkichlar tizimi taklif etildi. Vazn koeffitsiyentlari tarmoq xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanib, oshkoralik hamda ichki nazorat va audit bloklariga eng yuqori vazn (0,25) berildi.

Blok indekslarini yaxlitlashtirishda additiv usul o'rniga vaznlashtirilgan o'rta geometrik usuldan foydalanish taklif qilindi. Ushbu usul bloklararo to'liq kompensatsiyani cheklaydi va zaif blokning yakuniy bahoga ta'sirini saqlab qoladi.

Baholash natijalarini boshqaruv qarorlariga aylantirish uchun besh pog'onali reyting shkalasi va har bir pog'ona uchun tavsiya etiladigan choralar majmui ishlab chiqildi. Bu baholashni rasmiy protseduradan amaliy boshqaruv vositasiga aylantiradi.

7 Tadqiqot davomida to'plangan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Baholash metodikasi tarmoq segmentlariga moslashuvchan bo'lishi lozim: yirik aksiyadorlik korxonalari uchun to'liq tizim, o'rta va kichik korxonalar uchun esa qisqartirilgan ko'rsatkichlar to'plami qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari va Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazining tahliliy materiallari. – stat.uz; review.uz.
2. Korporativ axborot yagona portali. – openinfo.uz.
3. Jensen M.C., Meckling W.H. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3, No. 4. – P. 305–360.
4. Shleifer A., Vishny R.W. A Survey of Corporate Governance // The Journal of Finance. – 1997. – Vol. 52, No. 2. – P. 737–783.
5. Bhagat S., Black B. The Non-Correlation Between Board Independence and Long-Term Firm Performance // Journal of Corporation Law. – 2002. – Vol. 27, No. 2. – P. 231–273.
6. Gompers P., Ishii J., Metrick A. Corporate Governance and Equity Prices // The Quarterly Journal of Economics. – 2003. – Vol. 118, No. 1. – P. 107–156.
7. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard: Translating Strategy into Action. – Boston: Harvard Business School Press, 1996. – 322 p.
8. Charnes A., Cooper W.W., Rhodes E. Measuring the Efficiency of Decision Making Units // European Journal of Operational Research. – 1978. – Vol. 2, No. 6. – P. 429–444.
9. Saaty T.L. The Analytic Hierarchy Process: Planning, Priority Setting, Resource Allocation. – New York: McGraw-Hill, 1980. – 287 p.
10. OECD. G20/OECD Principles of Corporate Governance 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023. DOI: 10.1787/ed750b30-en.
11. OECD. Corporate Governance Factbook 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023.
12. Kaka E.J. Corporate Governance and Financial Reporting Quality of Construction Companies in Nigeria // Journal of Contemporary Accounting. – 2023. – Vol. 5, No. 3. – P. 127–141. DOI: 10.20885/jca.vol5.iss3.art1.
13. Радыгин А.Д., Энтов Р.М. Корпоративное управление и защита прав собственности: эмпирический анализ и актуальные направления реформ. – М.: Институт экономики переходного периода, 2001. – 175 с.
14. Ткаченко Д.Ю. Оценка качества корпоративного управления и инвестиционная привлекательность российских компаний // Аудит и финансовый анализ. – 2008. – № 10. – С. 1–8.
15. Гукасян З.О. Методология оценки качества корпоративного управления в промышленности на основе баланса экономических интересов: дисс. ... д-ра экон. наук. – Орёл: Орловский государственный университет имени И.С. Тургенева, 2018.
16. Muminova E.A. To'qimachilik sanoati korxonalarida korporativ boshqaruvning innovatsion paradigmasi: metodologiya, tajriba va rivojlanish istiqbollari: monografiya. – Farg'ona, 2021. DOI: 10.5281/zenodo.5676091.
17. Ganixodjaev B.F., Xusainov Sh.A. Korporativ boshqaruv tizimini baholash va uning diagnostikasi // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2018. – № 1. – B. 1–11.
18. Kurbaniyazov Sh.K. Qurilish materiallari sanoatida korporativ boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini joriy etish samaradorligi: i.f.f.d. (PhD) diss. – Toshkent: TDIU, 2018. – 92 b.
19. G'oziyev M.Sh. Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy salohiyatini boshqarishda iqtisodiy manfaatlarning shakllanishi // Research Focus International Scientific Journal. – 2023. – B. 92–95. DOI: 10.5281/zenodo.8403688.
20. Arifdjanova Z.D. Qurilish korxonalarida boshqaruv samaradorligini takomillashtirish // Innovative Technologies in Construction: ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. 1-qism. – Toshkent, 2023. – B. 238–240.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100